Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

VOYAGA YETMAGANLAR O‘RTASIDA GIYOHVANDLIK VOSITALARI TARQALISHINING OLDINI OLISH BO‘YICHA PROFILAKTIKA SUBYEKTLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Jo‘raboyev Bekzodbek Ibrohimjon o‘g‘li

Begzod624@gmail.com

Ilmiy maslahatchi: PHD **Sh.O.Ahmedov**

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.23042888

Annotatsiya: Voyaga yetmaganlar o‘rtasida giyohvandlik vositalari tarqalishining oldini olishda profilaktika subyektlarining faoliyati, ularning o‘zaro hamkorligi va profilaktik tadbirlarning samaradorligi masalalari yoritilgan. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida giyohvandlik bilan bog‘liq salbiy holatlarning oldini olishda oila, ta’lim muassasalari, mahalla, ichki ishlar organlari, sog‘liqni saqlash tashkilotlari, psixologlar va jamoatchilikning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Profilaktika ishlarini erta aniqlash, individual yondashuv asosida tashkil etish, huquqiy va pedagogik targ‘ibotni kuchaytirish, voyaga yetmaganlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: voyaga yetmaganlar, giyohvandlik vositalari, profilaktika, profilaktika subyektlari, huquqbuzarliklarning oldini olish, oila, ta’lim muassasasi, mahalla, hamkorlik, ichki ishlar organlari, ta’lim muassasalari, oila, mahalla, sog‘liqni saqlash tashkilotlari, psixologlar, ijtimoiy pedagog, individual profilaktika.

Аннотация: В статье освещаются вопросы деятельности субъектов профилактики по предупреждению распространения наркотических средств среди несовершеннолетних, их взаимодействия и эффективности профилактических мероприятий. В предупреждении негативных явлений, связанных с употреблением и распространением наркотических средств среди несовершеннолетних, важное значение имеет сотрудничество семьи, образовательных учреждений, органов самоуправления граждан, органов внутренних дел, организаций здравоохранения, психологов и общественности. Выдвинуты предложения по раннему выявлению факторов риска, организации профилактической работы на основе индивидуального подхода, усилению правовой и педагогической пропаганды, содержательной организации свободного времени несовершеннолетних, а также использованию современных технологий.

Abstact: The article examines the activities of prevention entities aimed at preventing the spread of narcotic drugs among minors, their cooperation, and the effectiveness of preventive measures. Cooperation among families, educational institutions, local self-government bodies, law enforcement agencies, healthcare organizations, psychologists, and the public is of great importance in preventing negative phenomena associated with drug use and distribution among minors. The article puts forward proposals for the early identification of risk factors, organizing preventive work based on an individual approach, strengthening legal and educational awareness, organizing meaningful leisure activities for minors, and using modern technologies.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida giyohvandlik vositalari tarqalishining oldini olish jamiyat xavfsizligini ta’minlashning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu jarayon voyaga yetmaganlarning sog‘lig‘i, ma’naviy-axloqiy rivojlanishi va kelajakdagi ijtimoiy hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillarni barvaqt aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan kompleks faoliyatni talab qiladi. Profilaktika faoliyatida ichki ishlar organlari, ta’lim muassasalari, oila, mahalla, sog‘liqni saqlash

tashkilotlari, psixologlar, ijtimoiy pedagoglar va jamoatchilikning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Har bir subyekt o‘z vakolati doirasida faoliyat olib borishi bilan birga, umumiy profilaktik maqsad asosida o‘zaro axborot almashishi va hamkorlik qilishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, bu jarayonga ko‘plab davlat va jamoat tashkilotlari jalb etilgan. Quyida ushbu profilaktika subyektlari faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari va strategik yechimlari keltirilgan.

1. Profilaktika subyektlari va ularning hamkorlik mexanizmlar voyaga yetmaganlar o‘rtasida giyohvandlikka qarshi kurashish faqatgina huquq-tartibot idoralarining ishi emas. Bu tizimli yondashuvni talab qiladi:
2. Profilaktika subyekti hozirgi faoliyati takomillashtirish yo‘nalishlariIchki ishlar organlari Huquqbuzarliklarni aniqlash, reydlar o‘tkazish. Kiber-makonda (ijtimoiy tarmoqlarda) narkotiklar targ‘iboti va savdosini aniqlovchi kiber-profilaktika bo‘linmalari faoliyatini kuchaytirish.
3. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi: Umumiy tushuntirish va ma’rifiy tadbirlar. Maktab psixologlari malakasini oshirish, o‘quvchilar orasida stress va depressiyani barvaqt aniqlash testlarini joriy etish.
4. Sog‘liqni saqlash organlari (narkologiya) giyohvandlikka chalinganlarni davolash va hisobga olish. Anonim maslahat xizmatlari ‘‘ishonch telefonlari’’ tarmog‘ini kengaytirish, maktablarda tahlillar o‘tkazish tizimini soddalashtirish.
5. Ijtimoiy himoya milliy agentligi: Muammoli oilalar bilan ishlash. Og‘ir ijtimoiy ahvoldagi va ota-ona nazoratisiz qolgan bolalarni manzilli ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya qilish. Mahalla va jamoat tashkilotlari. Mahalla darajasidagi targ‘ibot. ‘‘Mahalla yettiligi’’ tizimi orqali dorixonalarda kuchli ta’sir qiluvchi dori vositalarining noqonuniy savdosi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish, qonunchilik va uslubiy bazani yangilash. Profilaktika subyektlari faoliyati samaradorligini oshirish uchun normativ-huquqiy bazani takomillashtirish lozim.
6. Yagona idoralararo ma’lumotlar bazasi: Ichki ishlar, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimida xavf guruhiga kiruvchi voyaga yetmaganlar bo‘yicha tezkor ma’lumot almashish imkonini beruvchi yagona yopiq elektron platformani joriy etish.
7. Reabilitatsiya tizimi: Giyohvandlikka chalingan o‘smirlarni faqat jazolash yoki hisobga qo‘yish emas, balki ularni jamiyatga qaytarish uchun ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya markazlari tarmog‘ini kengaytirish.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida narkotik moddalar tarqalishiga qarshi kurashish faqatgina ma’ruzalar o‘qishdan iborat bo‘lmasligi kerak. Profilaktika subyektlari faoliyatini takomillashtirish zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, kiber-fazo ustidan nazoratni kuchaytirish, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish va eng muhimi, oila-makalla-maktab zanjirini mustahkamlash orqaligina amalga oshiriladi. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida ‘‘Yakka tartib’’dagi profilaktika ishi ijtimoiy va boshqa yordam ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan muddatlarda, voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi va qarovsizligiga e’tibor qaratish lozim. Aholi salomatligi va millat genofondini voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida giyohvandlikning oldini olish yo‘nalishida tezkor-profilaktik tadbirlar kompleksini tashkil etish. Ta’lim muassasalarida voyaga yetmaganlarning huquqiy savodxonligini oshirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, psixologik maslahatlar tashkil etish, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish va sport hamda ijodiy mashg‘ulotlarga jalb etish profilaktikaning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi. Oila ham profilaktikaning asosiy subyektlaridan biridir. Ota-onalarning farzandlari bilan muntazam muloqot qilishi, ularning muammolari va qiziqishlariga e’tibor qaratishi, tarbiya jarayonida ta’lim muassasasi va mutaxassislar bilan hamkorlik qilishi salbiy ta’sirlarning oldini olishga yordam beradi. Profilaktika

subyektlari faoliyatini takomillashtirish uchun erta aniqlash mexanizmlarini rivojlantirish, individual profilaktik yondashuvni kuchaytirish, tashkilotlararo hamkorlikni takomillashtirish, ota-onalar bilan ishlashni kuchaytirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida giyohvandlik vositalari tarqalishining oldini olish faqat bitta tashkilotning vazifasi emas, balki oila, ta’lim, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalla, tibbiyot va jamoatchilikning hamkorligini talab qiladigan kompleks jarayondir. Profilaktika subyektlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va profilaktik faoliyatni individual yondashuv asosida tashkil etish uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. arshi kurashish borasida keng qamrovli tashkiliy-amaliy ishlar olib borilmoqda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va aql-iroda faoliyatiga ta’sir etuvchiboshqa moddalar, ayniqsa voyaga yetmaganlar o‘rtasida, jiddiy sog‘liq va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Yoshlar orasida bunday moddalarni iste’mol qilish nafaqat ularning jismoniy va ruhiy salomatligiga zarar yetkazadi, bal ki ularning kelajakdagi hayoti va jamiyatdagi o‘rni uchun ham tahdid soladi. Dunyo bo‘ylab ko‘plab davlatlar ushbu muammo bilan kurashishda samarali strategiyalar ishlab chiqishdi.

Voyaga yetmaganlar ortasida giyohvandlik moddalarini istemol qilish va unga ruju qo‘yishning asosiy sabablari, zavq olish istagi, o‘tkir hissiyotlarga intilish, shuningdek, muayyan do‘stlar yoki tanishlar ortirish sabab bo‘lmoqda. Maktablarda giyohvandlikning oldini olish ishlari yangi bosqichda ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tashabbuslar maktab o'quvchilari o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish va giyohvandlikning oldini olish borasidagi ishlarni. Giyohvandlikka qarshi kurashish borasida keng qamrovli tashkiliy-amaliy ishlar olib borilmoqda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va aql-iroda faoliyatiga ta’sir etuvchi boshqa moddalar, ayniqsa voyaga yetmaganlar o‘rtasida, jiddiy sog‘liq va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Dunyo bo‘ylab ko‘plab davlatlar ushbu muammo bilan kurashishda samarali strategiyalar ishlab chiqishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-139-son Qonuni, 07.01.2008.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-263-son Qonuni, 29.09.2010.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-371-son Qonuni,14.05.2014.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni, 23.09.2020.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-avgustdagi 490-sonli “Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘grisida”gi qarori
7. S.Ya.Abubakirova. Maktab va oila hamkorligi. Maktab o‘quvchilari tarbiyasi.
8. Academy Q.A Yulchixonov “Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari profilaktikasida mahalla va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikning samaradorligi”, 2025.
9. http:wwwO‘zbekiston Elektron Ilmiy Kutubxonasi